



MIRSODIQ TOJIYEV IJODIDA FOJIAVIYLIK MASALASI

Muallif: Tursunboyev Behzodbek Asqarali o'g'li¹, prof. O.Abdullayeva²

Affilyatsiya: O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg'ulashtirish” kafedrasida 2-kurs magistranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14383337>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston kompozitorlarining ikkinchi avlodiga mansub, atoqli kompozitor, “O'zbek maqom simfonizmi” asoschisi Mirsodiq Tojiyev ijodida fojiaviylik masalasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada musiqa san'ati fojiaviylik masalasi atroflicha aks etgan.

Kalit so'zlar: simfoniya, poema, fojia, vokal-simfonik asar, o'zbek simfonizmi.

O'zbekiston kompozitorlari ijodida fojiaviy mazmunga ega musiqiy asarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, Ik.Akbarovning “Shoir xotirasiga” simfonik poemasi, R.Vildanovning “Olovli yo'llar” kinofilmi uchun musiqasi, R.Abdullaevning “Xirosima faryodi” vokal-simfonik asari, O.Abdullayevaning “Jadidlar xotirasiga” 2-simfoniyasini misol tariqasida keltirish mumkin.

Shu o'rinda bu masala bo'yicha alohida ta'kidlash joiz bo'lgan ijodkor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, o'zbek simfonizmi asoschisi, kompozitor Mirsodiq Tojiyevdir. Mirsodiq Tojiyev ijodida fojiaviylik turli vositalarda aks ettiriladi. Uning simfonik ijodida aynan shu masala ustuvor ahamiyat kasb etadi.

M.Tojiyevning “Somon yo'li” trilogiyasi uchta simfoniyaning o'z ichiga oladi. Ular o'n beshinchi, o'n oltinchi, o'n yettinchi raqamli simfoniya bo'lib, mazmun doirasida yaxlit musiqiy-simfonik turkumni tashkil etadi. O'n beshinchi simfoniya xususida so'z borganda mazkur simfoniya XX-asr buyuk rus yozuvchisi, dramaturg va shoir, Nobel mukofoti sovrindori, A.I.Soljenitsin qalamiga mansub “GULAG arxipelagi” nomli roman 1973-yilda Moskvada ilk marta nashrdan chiqishi bilan taqiqlanadi. Uning muallifi esa davlatga hiyonatda ayblanib qamoqqa olinadi, ko'p vaqt o'tmay, mamlakatdan chiqarib yuboriladi. Ammo bu asarning dovrug'i o'zga yurtlar erksevar o'quvchilari orqali tobora kengroq yoyilaveradi. Nihoyat, 1980- yillarning oxiri 1990-yillarning boshlariga kelib, adibga nisbatan vatanida barcha siyosiy-mafkuraviy cheklolvar bekor qilingach, tarixiy roman ham qayta-qayta chop etilib omma e'tirofiga sazovor bo'ladi.

Ma'lumki, “GULLAG arxipelagi” o'ziga xos adabiy-hujjatli asar bo'lib, unda 1918-1956 yillar mobaynida mamlakat bo'ylab uyushtirilgan ommaviy qatog'onlar haqida hikoya qilinadi. Mirsodiq Tojiyev bu kitobni mutolaa qilib, dahshatli voqea va hodisalar tafsilotidan larzaga tushadi. Qatag'on qurbonlari orasida kam bo'lmagan vatandoshlar ham yodga olinadi. Dovyurak A.I.Soljenitsin hayotdan olib ko'rsata bilgan kishilarning ayancli qismati, joylardagi hukm surgan adolatsizliklar, siquv va zo'raonliklar

manzarasi o'zbek kompozitorini befarq qoldirmadi. Kuchli taassurotlar ortidan uning qalbida zulmkor tuzumni qoralash, jinoiy ishlarni fosh etish, yer yuzida ezgulik va insonparvarlikning tantanasi uchun kurashish kabi g'oyalarni orkestr tilida tarannum etish istagi tug'ildi.

M.Tojiyev shu asosda simfoniyaning g'oyaviy-falsafiy konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning negizida SSSR xalqlari boshiga tushgan azob-uqubatlar va behisob yo'qotishlar, yetkazilgan ruhiy jarohat hamda xijron o'ti xonishlari markaziy o'rinda turadi. Ayni paytda, tinchlik va totuvlik, inson qadr-qimmati, hayotbahsh orzu va umidlar kuylanishi yuqori darajaga ko'tariladi. Darvoqe, bunday mahobatli dasturiy loyiha nafaqat sobiq SSSR respublikalari kompozitorlik ijodiyotida balki, jahon simfonizmida ham hali uchraman edi.

Mahobatli loyiha but holatga keltirilishi natijasida O'n beshinchi simfoniya "GULLAG arxipelagi", O'n oltinchi simfoniya "Ruhlar ingrog'i", O'n yettinchi simfoniya "Somon yo'li" kabi nomlarda yaxlit majmuani vujudga keltirdi.

M.Tojiyevning o'n beshinchi "GULLAG arxipelagi" simfoniyasining kirish qismi alt cholg'usining divisi fonida fagot cholg'usida iztirobli kuy yo'li yangraydi.



Simfoniya orkestr cholg'ularining jangari marshnamo sadolari, keskin eshitiluvchi zarblar, mexanik tarzda qaytariluvchi ohang parchalarini mudhid voqealar va mushkul holatlarni tavsirlaydi. Tom ma'noda ohangdoshlik, kuychanlik, o'zaro uyg'unlik deyarli kuzatilmaydi. Paydo bo'lsa ham ham, og'ir dard, alam, xasrat tushkunligida eshitiladi. M.Tojiyev tomonidan to'qilgan orkestr musiqasi hamhuddi shu manzara va unga mos ruhiy iztirob holatlarini ifodalashga qaratilgan.

Simfoniya adolatsizlik va zulm, kulfat va musibat, ularning bitmas jarohatlari sadolarga ko'chgandek bo'ladi. Quyidagi partitura ham ushbu holatni ko'rish mumkin. Katta simfonik orkestrda dahshatli qirg'inbarotga, yovuzliklarga qarshi turgan ezgulik tomon insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik kabi tamoyillarni tarannum etishga umidvorlik yo'qolmaydi.

51 $\text{♩} = 1$

Picc
fl
ob
Cl. in F
ob. B.
cl. horn
tr. 1
tr. 2
tr. 3
tr. 4
tr. 5
tr. 6
tr. 7
tr. 8
tr. 9
tr. 10
tr. 11
tr. 12
tr. 13
tr. 14
tr. 15
tr. 16
tr. 17
tr. 18
tr. 19
tr. 20
tr. 21
tr. 22
tr. 23
tr. 24
tr. 25
tr. 26
tr. 27
tr. 28
tr. 29
tr. 30
tr. 31
tr. 32
tr. 33
tr. 34
tr. 35
tr. 36
tr. 37
tr. 38
tr. 39
tr. 40
tr. 41
tr. 42
tr. 43
tr. 44
tr. 45
tr. 46
tr. 47
tr. 48
tr. 49
tr. 50
tr. 51
tr. 52
tr. 53
tr. 54
tr. 55
tr. 56
tr. 57
tr. 58
tr. 59
tr. 60
tr. 61
tr. 62
tr. 63
tr. 64
tr. 65
tr. 66
tr. 67
tr. 68
tr. 69
tr. 70
tr. 71
tr. 72
tr. 73
tr. 74
tr. 75
tr. 76
tr. 77
tr. 78
tr. 79
tr. 80
tr. 81
tr. 82
tr. 83
tr. 84
tr. 85
tr. 86
tr. 87
tr. 88
tr. 89
tr. 90
tr. 91
tr. 92
tr. 93
tr. 94
tr. 95
tr. 96
tr. 97
tr. 98
tr. 99
tr. 100

Dirigent

timpani
tamburo
cym.
tri.
sn.
bd.
harp

Piano

53 Уравае глин ай ирагелано кизкай / 53 ирагелано кизкай наиве к наивырасимо - 33 - айиме.

Aytish mumkinki, M.Tojiyevning O'n beshinchi simfoniyasi ellararo qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlab yozilgan maxsus musiqiy yodgorlik tarzida qabul qilinadi. Shun boisdan unda ko'proq baynalminal hislatlarga ega mushtaraklik musiqiy til xususiyatlari yaqqro aks etadi. Uslubiy jihatdan simfoniya marsh janrining yetakchiligi yaqqol seziladiyu Uning qiyofasi birmuncha o'zgaruvchan bo'lsa-da, tanish unsurlarnhining rivojlanish harakati bo'ylab kuzatish qiyin emas. Masalan, yuqoridagi musiqiy misolda ham aleatorika texnikasi hamda zamonaviy elektron musiqa vositalari bilan chatishib ketadi natijada o'ziga xos kollaj hosil bo'ladi. Bir andozadagi kuy

parchalarining qayta-qayta takrorlanishi esa misoli qatog'on zulmi o'tkazilayotgandek seziladi. Simfonik orkestr jarangi, uning tobora kuchga bo'lishi, ehtimol, qo'rqinchli kino musiqa lavhalarini eslatadi.

Mazkur simfoniya 1990-yil 30-may sanasida O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida tashkil etilgan kompozitorlarning yangi asarlari tinglovida ilk bor yangradi.

"Somon yo'li" nomli trilogiyani tashkil etuvchi simfoniyalardan ikkinchisi "Ruhlar ingrog'i" deb ataladi. Ushbu simfoniya torli orkestr ijro etilishi uchun mo'ljallangan. Asarning mazmun-mundariyasi, ichki tuzilishi bilan musiqiy-uslubiy xususiyatlari makroturkum konsepsiyasidan kelib chiqadi. Shu boisdan tarkibidagi uchala simfoniyaning o'zaro bog'lovchi tashqi dramaturgiyada uning tutgan o'рни va mavqei alohida ahamiyat kasb etadi.

"Ruhlar ingrog'i" simfoniya hayot-mamot masalalari yuzasidan falsafiy mushohadalar yuritilishi barobarida, ushbu yo'sindagi insonning og'ir ko'ngil kechinmalari izhor etiladi. Bu simfoniya musiqasida boshdan oxirigacha qayg'uli holat hukmron. Chunki, ruhiy ezilish, tushkunliklar so'nggi pallaga qadar faqat qisqagina dramatik lavhalar bilan almashinib boradi.

Ingrashnamo ovozlari, arvoqlar chirqillashiga badiiy o'xshatma tarzida yangrovchi kuy-ohang uyg'unliklari orkestr vositalari (sekundasimon yurish orqali, turli yo'nalish tomon harakat, sakramalar) orqali musiqiy matoda aks etadi.

Taniqli musiqashunos Oqilxon Ibrohimov "Teranlik" nomli maqolasida ushbu simfoniya to'htalib: "O'n oltinchi simfoniya... yovuzliklarni keltirib chiqarayotgan sabablar fosh etiladi, ma'naviy inqirozdan qutulishning yagona yo'li - bu ruhiy poklanish, inmoy-e'tiqodli bo'lish ekanligi quyiladi", -deb xulosa chiqaradi.

"Ruhlar ingrog'i" nomli simfoniya eng og'ir, psixologik holati bo'yicha o'ta murakkab va qayg'uli asardir. U zamonaviy o'zbek simfonizmida ham o'tkir dramatik tus olgan tanho fojiviy simfoniya bo'lsa, ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

R.Yunusov. Mirsodiq Tojiev. Monografiya. Toshkent: 2018 y.

M.Tojiev. 15-simfoniya. Partitura. (Muallif qo'lyozmasi).

¹ Ushbu simfoniya xususida M.Tojiev "Lahad kushandalari, arvoqlar chirqiramoqda", - deya ta'kidlaydi.